

“TBC Bank” ATBning “TBC Bank tashkil etilgan kuni munosabati bilan chegirma” dasturini o‘tkazish qoidalarini

MUNDARIJA

1. Umumiy shartlar;
2. Atama va ta’riflar;
3. Dastur tashkilotchisi;
4. Dasturda ishtirok etish tartibi;
5. Ishtirokchilar huquqlari va majburiyatlari;
6. Bank huquqlari va majburiyatlari;
7. Javobgarlik;
8. Nizolarni hal etish tartibi;
9. Boshqa shartlar.

1. UMUMIY SHARTLAR.

1.1. Mazkur “TBC Bank” ATB (keyingi o‘rinlarda “Bank” deb ataladi) “TBC Bank tashkil etilgan kuni munosabati bilan chegirma” dasturining Qoidalarini (keyingi o‘rinlarda “Dastur” deb ataladi) Bank Mijozlarining Dasturda ishtirok etish shartlarini va tartibini belgilaydi.

1.2. Ushbu Dastur Qoidalarini lotereya emas yoki Dasturda ishtirok etish bilan bog‘liq holda, Dastur ishtirokchilari uchun mol-mulk xavfini yuzaga keltiruvchi tavakkalchilik asosida yaratilgan o‘yin emas. Dasturni o‘tkazish tartib-taomili ishtirokchilar tomonidan biror-bir to‘lovni kiritishi bilan bog‘liq emas.

1.3. Ushbu Qoidalar O‘zbekiston Respublikasi Fuqarolar Kodeksining 367-moddasiga va 369-moddasining ikkinchi qismiga muvofiq ommaviy oferta hisoblanadi. Qoidalar Bankning rasmiy saytida joylashtirilgan - www.tbcbank.uz.

1.4. Dasturning boshlanish sanasi: 2023 yil 11 aprel; Dasturning tugash sanasi: 2023 yil 11 aprel, shu jumladan. Dastur amal qilish muddati: Boshlanish sanasidan boshlab tugash sanasigacha bo‘lgan muddat davomida, shu jumladan.

1.5. Dastur o‘tkazish joyi: O‘zbekiston Respublikasi hududi.

1.6. Dasturning amal qilish muddati davomida yangi Mikroqarz olish uchun muvaffaqiyatli ariza bergan Bankning har qanday verifikatsiyalangan mijozi Dastur Ishtirokchisi bo‘lishi mumkin.

1.7. Bankning xizmatlari va mahsulotlarini olish, ulardan foydalanish, shu jumladan onlayn Mikroqarz mahsulotini olish tartibi va shartlari Bankning Bosh shartlari (keyingi o‘rinlarda "BSh" deb yuritiladi) va Bankning rasmiy veb-saytida joylashtirilgan va/yoki Bankning mobil ilovasi orqali ko‘rib chiqish mumkin bo‘lgan Bank mahsulotlarining boshqa shartnomalari bilan tartibga solinadi.

1.8. Bank mijozi TBC UZ mobil ilovasidagi “Kredit olish” tugmasini bosish orqali Dastur amal qilish muddati davomida ushbu Dastur shartlarini avtomatik ravishda qabul qiladi va ularga rozilik bildiradi.

2. ATAMA VA TA’RIFLAR

| | |
|------------------------|---|
| Bank | “TBC Bank” aksiyadorlik tijorat banki. |
| Dastur | “TBC Bank tashkil etilgan kuni munosabati bilan chegirma” dasturi |
| Bankning Mijozi | Bank xizmatlari va mahsulotlaridan foydalanuvchi jismoniy shaxs |
| Ishtirokchi | Dastur ishtirokchisi sifatida mazkur Qoidalarning shartlariga muvofiq kelgan Bankning mijozi. |

| | |
|--------------------------|---|
| Ilova | AppStore va Playmarket platformalarida ishlovchi qurilma-smartfonlarda foydalanish mumkin bo'lgan TBC UZ mobil ilovasi. |
| Mikroqarz | Bank mahsuloti "TBC Bank" ATBning Onlayn Mikroqarz shartnomasiga muvofiq Bank tomonidan taqdim etiladigan onlayn mikroqarz. |
| Dam olish kunlari | Dam olish kunlari ushbu Qoidalarning amal qilish muddati davomida har kalendar shanba va yakshanba kunlari hisoblanadi. |

3. DASTUR TASHKILOTCHISI.

- 3.1. Dastur tashkilotchisi - Bank.
- 3.2. Bankning rekvizitlari: 100015, Toshkent shahar, Mirobod tumani, Fidokor ko'chasi, 10B-uy. Telefon: +99878 777 2727. Pochta: contact@tbcbank.uz

4. DASTURDA ISHTIROK ETISH TARTIBI.

- 4.1. Ishtirokchiga aylanish uchun Bankning Mijozlari Qoidaning 1.6-bandida belgilangan shartlarga rioya etishi zarur.
- 4.2. Dasturning har bir Ishtirokchisiga Bankning skoring tizimi tomonidan tasdiqlangan Mikroqarzning foiz stavkasi bo'yicha 11% gacha chegirma taqdim etiladi.
- 4.3. Ishtirokchi Mikroqarz olish uchun arizani muvaffaqiyatli topshirganidan keyin va Bankning skoring tizimi tomonidan kreditga layoqatliligi ijobiy baholanganidan so'ng TBC UZ mobil ilovasi interfeysida chegirmani hisobga olgan holda Mikroqarz bo'yicha yakuniy foiz stavkasi to'g'risidagi ma'lumotlarni oladi.
- 4.4. Ishtirokchi Mikroqarz mablag'larini o'tkazishga rozi bo'lgandan so'ng, ular Bank shartnomalariga muvofiq Ishtirokchining bank kartasiga o'tkaziladi.
- 4.5. Chegirma amaldagi "Qo'shimcha kredit" krediti miqdorini oshirish xizmatiga taalluqli emas.

5. ISHTIROKCHILAR HUQUQLARI VA MAJBURIYATLARI.

- 5.1. Ishtirokchi quyidagi huquqlarga ega:
 - Bank qoidalari va shartnomalarida belgilangan hajmda va tartibda Dastur to'g'risida ma'lumot olish;
 - ushbu Qoidalarning 1.6-bandiga rioya qilgan holda, ushbu Qoidalarga muvofiq Ishtirokchi maqomini olish;
 - Mikroqarz olishni rad etish orqali ushbu qoidalarga muvofiq taqdim etilgan chegirmadan voz kechish.
- 5.2. Ishtirokchi ushbu Dastur qoidalari bilan tanishishi shart. Bank mijozining Dasturda ishtirok etishi avtomatik tarzda Bank mijozining ushbu Qoidalar bilan tanishganini va to'liq roziligini bildiradi.

6. BANK HUQUQ VA MAJBURIYATLARI.

- 6.1. Bank Dasturni amalga oshirishi, shuningdek, ushbu Qoidalarga muvofiq chegirmalarni taqdim etish majburiyatlarini bajarishi shart.
- 6.2. Ushbu Dastur 1.4-bandiga muvofiq butun Dasturning amal qilish muddati davomida Bank tomonidan bekor qilinishi mumkin emas. Bank, shuningdek, ushbu Dasturning amal qilish muddatini bir

tomonlama tartibda uzaytirish huquqini o'zida saqlab qoladi, bu haqda Bank tomonidan mijozlarga istalgan aloqa kanallari orqali xabar beriladi.

6.3. Bank Dastur ishtirokchilarini aniqlash maqsadida O'zbekiston Respublikasining amaldagi qonunchiligi doirasida Dasturni amalga oshirish uchun anketalar yoki boshqa ma'lumotlar va hujjatlarni to'plash orqali ishtirokchilarning shaxsiy ma'lumotlarini to'plash huquqiga ega.

6.4. Bank bir tomonlama tartibda Dastur shartlarini o'zgartirish va Dastur to'g'risidagi qo'shimcha ma'lumotlarni <https://tbcbank.uz/> veb-saytida, shuningdek, Bank ofislarida e'lon qilish huquqini o'zida saqlab qoladi.

6.5. Bank xavf va suiiste'mollik bo'yicha tekshirish ishlarini o'tkazganidan so'ng, Mijoz chegirmaga ega bo'lishi mumkin. Shu bilan birga, agar Bank mijozni noqonuniy, shubhali va/yoki firibgarlik harakatlarini amalga oshirayotgan deb asosli ravishda hisoblasa, Bank Mijozni ushbu Qoidalar shartlarini bajarishni rad etish huquqini o'zida saqlab qoladi.

Biroq, Bank: (a) har qanday chegirmalarni bekor qilish; (b) Mijozning Dasturda ishtirok etishini yoki chegirmaga ega bo'lishini taqiqlash; (c) Mijozning kelajakdagi aksiyalar va o'yinlardagi ishtirokini bloklash; va/yoki (d) har bir holatda, agar u o'zining oqilona fikriga ko'ra, Mijozning xatti-harakatlari ushbu Qoidalarga zid deb hisoblasa va/yoki Mijoz Dastur shartlarini suiiste'mol qilayotganligi borasida qaror qabul qilgan bo'lsa yoki har qanday holatda uning hisobini to'xtatib qo'yishi mumkin. Bunga quyidagilar kiradi, lekin ular bilan cheklanmaydi:

- (i) bir nechta hisobvarag'lar ochish;
- (ii) ro'yxatga olish vaqtida noto'g'ri ma'lumotlar taqdim etish;
- (iii) ijtimoiy tarmoqlarda, veb-saytlarda, qidiruv tizimlarida yoki ommaviy tarqatish vositalarning har qanday shakli orqali yolg'on/noqonuniy/noto'g'ri ma'lumotlarni ommaviy ravishda taqdim etish;
- (iv) hisobvarag'ning haqiqiy egasi nomidan harakat qiluvchi uchinchi shaxslarga foydalanish huquqi bilan ta'minlash.

7. JAVOBGARLIK.

7.1. Ishtirokchiga Mikroqarz bo'yicha taklif etilayotgan foiz stavkasi to'g'risida xabar berilgan vaqtdan boshlab Bankning chegirma berish bo'yicha majburiyati bajarilgan hisoblanadi.

7.2. Bank mazkur Qoidalar amal qilish muddati davomida yuzaga kelgan tizimlardagi texnik nosozliklar, kamchiliklar, xatolar bilan bog'liq ushbu Qoidalarga muvofiq majburiyatlar bajarmaganligi uchun javobgar emas.

7.3. Agar 7.2-bandda ko'rsatilgan vaziyatlar yuzaga kelsa, Bank texnik tizimlarida yuzaga kelgan xatolar, kamchiliklar va nosozliklarni bartaraf etish sana va muddatini Bank mustaqil ravishda belgilash huquqini o'zida saqlab qoladi.

7.4. Agar uchinchi shaxslarning qasddan va/yoki qasddan bo'lmagan harakatlari sabab Bank ushbu Qoidalarda belgilangan shartlarni bajara olmasa, Bank javobgar emas.

7.5. Mazkur Qoidalar asosida tartibga solinmagan boshqa masalalar Bankning Bosh Shartlari hamda Bank va Bankning Mijozni o'rtasida tuzilgan boshqa shartnomalar bilan, shuningdek, O'zbekiston Respublikasining amaldagi qonunchiligi bilan tartibga solinadi.

8. NIZOLARNI HAL ETISH TARTIBI.

8.1. Ushbu Qoidalardan kelib chiqadigan yoki ular bilan bog'liq barcha nizoli masalalar do'stona yo'l bilan maslahat va muzokaralar yordamida hal qilinadi.



8.2. Agar Tomonlar nizo va kelishmovchiliklarni 8.1-bandga muvofiq hal qilishga erisha olmasa, nizolar O'zbekiston Respublikasining qonunchiligiga muvofiq Bankning rasmiy ro'yxatdan o'tgan manzilida hal qilinadi.

9. BOSHQA SHARTLAR

9.1. Ushbu Qoidalar 11.04.2023 yildan kuchga kiradi va 11.04.2023 yil operatsion kun tugaguniga qadar amal qiladi.

9.2. Ushbu Qoidalar Bankning rasmiy veb-sayti - www.tbcbank.uz da joylashtirilgan.

9.3. Dastur ishtirokchilari yuqoridagi saytda (yuqoridagi havolada) tegishli o'zgarishlarni tekshirish orqali Dastur shartlarining yangilanishini mustaqil ravishda nazorat qilishlari shart.

9.4. Bank mijozi TBC UZ mobil ilovasining "Mulohazalar" bo'limida bu haqda yozgan holda ushbu Dasturda ishtirok etishni rad etishga haqli.